

**TA'LIM JARAYONIDA SHAXSNING MUSTAQIL FIKR YURITISH  
QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI**

Olimov Temur

Ilmiy rahbar

Sherova Saboxat

Osiyo xalqaro universiteti 1-bosqich magistranti

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari, uning mazmun-mohiyati, psixologik-pedagogik asoslari, shuningdek, mustaqil fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil fikrlash, fikr yuritish mexanizmlari, pedagogik jarayon, ta'lim texnologiyalari, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, ijodkorlik, refleksiya, kompetensiya, innovatsion ta'lim.

**Introduction**

**ABSTRACT**

This article highlights the pedagogical mechanisms for developing students' independent thinking skills in the educational process, their essence and content, the psychological and pedagogical foundations, as well as the role of modern pedagogical technologies and interactive methods in fostering independent thinking.

**Keywords:** Independent thinking, thinking mechanisms, pedagogical process, educational technologies, interactive methods, problem-based learning, creativity, reflection, competence, innovative education.

**KIRISH**

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – shaxsni mustaqil fikr yurita oladigan, muammolarni tahliliy hal eta biladigan, ijodkor, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishdir. Mustaqil fikrlash kompetensiyasi nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy faoliyatda olingan ko'nikmalar orqali mustahkamlanadi. Shuning uchun oliy ta'lim tizimida shaxsning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni aniqlash, ularni takomillashtirish va samaradorligini baholash dolzarb masala sanaladi.

**Mustaqil fikrlash** – shaxsning vaziyatni tahlil qilish, o'z fikrini dalillar asosida bayon eta olish, mavjud muammolarga original yechimlar taklif qila olish salohiyatidir. Bu jarayon tafakkur,

muloqot, tahlil, muhokama, mulohaza yuritish kabi kognitiv faoliyatlar majmuasiga tayangan holda shakllanadi.

Mustaqil fikrlash jarayonida shaxs tayyor qaror va xulosalarga tayanib qolmay, balki muammoni mustaqil o'rganadi, turli nuqtayi nazarlarni solishtiradi va o'z qarorini ongli ravishda qabul qiladi.

Ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashni rivojlantirish shaxsning nafaqat akademik muvaffaqiyatini, balki uning ijtimoiy moslashuvi, kasbiy tayyorgarligi va hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish salohiyatini ham belgilab beradi. Shu bois mustaqil fikrlash zamonaviy ta'lim tizimining muhim natijalaridan biri sifatida qaraladi.

Shaxsning mustaqil fikrlashi quyidagi ko'rsatkichlar asosida namoyon bo'ladi:

fikr bildirayotganda mustaqil xulosa chiqarish;

turli manbalardan axborot izlab topa olish; o'z nuqtai nazarini asoslay olish;

kreativ va noan'anaviy fikrlash;

tanqidiy yondashuv ko'nikmalariga ega bo'lish.

Mazkur ko'nikmalar shaxsning ijtimoiy hayotdagi faol ishtirokini ta'minlaydi, kasbiy kompetentlik va intellektual salohiyatning oshishiga zamin yaratadi. Oliy ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashni rivojlantirish davlat ta'lim standartlari, kompetensiyaviy yondashuv, modulli ta'lim, interfaol metodlar va elektron ta'lim texnologiyalari bilan uyg'un holda tashkil etiladi. Shaxsning mustaqil fikr yuritish qobiliyati – ta'lim jarayonining muhim natijasi bo'lib, konstruktiv, tanqidiy va ijodiy tafakkur bilan chambarchas bog'liqdir. Oliy ta'limda mazkur sifatlarni shakllantirish nazariy-metodik asoslar bilan ta'minlanadi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etadi. Pedagogik mexanizmlarni to'g'ri tashkil etish talabalarda mustaqil izlanish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirib, ularni kelajakda raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga yordam beradi. Shaxsning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini shakllantirish — zamonaviy ta'lim tizimining asosiy talabi va strategik yo'nalishlaridan biridir. Pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli ta'lim va mustaqil topshiriqlar orqali talabalarda mustaqil fikr yuritish malakasini rivojlantiradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Mustaqil fikr yuritishning ro'yobga chiqishida talaba fikr, mulohaza, g'oya, faraz, maqsad kabilar vujudga keladi va ular shaxs ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar sifatida ifodalanadi. Mustaqil fikr yuritish til va nutq bilan chambarchas bog'liq ravishda namoyon bo'ladi hamda ular uzluksiz tarzda bir-birini taqozo etadi. Xuddi shu bois talaba o'zining mustaqil fikrlashi, nutqi, ongli xulq-atvori tufayli borliqdagi mavjudotlardan tubdan ajralib turadi. Talaba mustaqil fikr yuritish faoliyatida o'zi aks ettirgan, sezgan, idrok qilgan, tasavvur etgan, eslab qolgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, haqiqiyliyi yoki ularning voqelikka mos tushishi va tushunmasligini aniqlaydi.

Insonni inson tomonidan idrok qilish, ya'ni notanish shaxsning ruhiy holatini aniqlash, uni taxmin qilish, eng zarur alomatlari va belgilari to'g'risida materiallar to'plash ham ijodiy fikrlashning mahsulidir. Mazkur murakkab bosqichdan iborat bilish jarayoni insondan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni, ongli munosabatni, barqaror vaziyatni, qulay shart-sharoitlarni talab qiladi, bularning bevosita ta'siri orqali ma'lum bir qarorga kelinadi. Talabanning fikrlash

faoliyati ijtimoiy xususiyatga ega. Fikrlashning ijtimoiy tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval ovqatlanish uchun ozuqa izlash, keyinchalik esa mehnat qurolini yasash va ulardan o'z o'rnida foydalanish kezida shaxslararo fikr almashish, tajriba bilan o'rtoqlashish ehtiyoji vujudga kelgan. Insonning o'zaro muloqotga kirishishi, muomala qilishi, munosabat o'rnatishi natijasida fikr bildirish, so'zlashuv uquvi yuzaga kela boshlagan.

Nutqning sharofati bilan fikrlash maxsullarining izchilligi, mantiqiyliqi, tizimliliqi paydo bo'lgan, kelajak avlod uchun ma'naviy meros tariqasida qoldirish imkoniyati tug'ilgan. Insoniyat tomonidan to'plangan tizimlashtirilgan tajribalar, bilimlar, ko'nikma va malakalar qoldirilmaganida, odamzodning fikr yuritishi fan, texnika, madaniyat sohalarida bunday ulkan yutuqlarga erisha olmasdi.

Talabaniqning mustaqil fikr yuritishi quyidagi bosqichlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin:

1. Muammoning talaba idrok maydonida paydo bo'lishi.
  2. Talaba tomonidan masala, muammo, topshiriq mohiyatini anglash.
  3. Ularga o'xshash ma'lumotlar yoki obrazlarning vujudga kelishi.
  4. Tasavvur va xotira materiallarining kamayishi, taxminlar (farazlar)ninguzluksiz tug'ilishi
  5. Taxminlarni bosqichma-bosqich tekshirish yoki ularning haqqoniyligini tasdiqlash.
  6. Yangi taxminning yuzaga kelishi va takomillashuvi.
  7. Farazlarni ikkilamchi tekshirish (ikkinchi marta tasdiqlash).
  8. Masala, topshiriq, muammo yechimini topish (hal qilish).
  9. Ixtiyorsiz aqliy xatti-harakatlarning davom etishi (fikrlarning nisbiy davomiyligi) va hokazo.
- Mustaqil fikr yuritish o'zining samaradorligi, dolzarbliqi, universalligi bilan kasbiy tayyorgarlik mahorat sari talabalarni yetaklaydi, jamiyat va tabiat hodisalarini anglash uchun puxta negiz hozirlaydi.

Ta'lim jarayonida shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi ko'plab pedagogik va psixologik manbalarda keng yoritilgan. Avvalo, "Ta'lim to'g'risida" Qonun (2020) hamda Prezident Farmonlari ta'lim tizimini yangilash, innovatsion metodlar qo'llash va mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashni davlat miqyosida ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Bu hujjatlar mavzuning dolzarbligini tasdiqlab, nazariy asos va yo'nalish beradi.

Pedagogika sohasidagi ilmiy manbalar ham bu borada muhim. Safarova, Yo'ldoshev, Ziyomuhamedov, Hodjayev kabi olimlar ishlarida ta'lim texnologiyalari, o'qituvchi mahorati va interfaol metodlar orqali talaba fikrlash faolligini oshirish yo'llari o'rganilgan. Ayniqsa, Yo'ldoshevning tadqiqotlarida mustaqil fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish bosqichlari, mashg'ulotlarni tashkil etish va baholash mezonlari aniq ko'rsatilgan bo'lib, mavzu uchun bevosita amaliy ahamiyatga ega.

Psixolog olimlar Karimova, G'oziyev asarlarida fikrlashning psixologik asoslari, tafakkur jarayoni, idrok va xotiraning ta'limdagi roli yoritilgan. Bu manbalar mustaqil fikrlash faqat metod emas, balki psixologik jarayon ekanini ko'rsatadi. Talabaniqning yoshi, qiziqishi, ehtiyoji va motivatsiyasi fikrlash faolligiga bevosita ta'sir qilishi qayd etilgan.

Jahon tajribasiga nazar solganda, Blum, Vigotskiy, Piaget, De Bono kabi olimlarning ishlari g'oyat muhim. Blum taksonomiyasida bilim darajalari aniqlangani sababli mustaqil fikr asosan tahlil, sintez va baholash bosqichlarida shakllanishi ta'kidlanadi. Vigotskiy esa shaxs rivojida muloqot va ijtimoiy muhitning rolini asoslab, talabani qo'llab-quvvatlovchi pedagogik muhit

shakllantirish zarurligini ko'rsatgan. Piaget nazariyasi mustaqil fikr yoshga mos rivojlanishini tushuntiradi. De Bono esa kreativ, mantiqiy bo'lmagan yo'nalishda o'ylashni rag'batlantiruvchi yondashuvlar bilan boyitadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda (Saidov, Raxmonqulov va boshqalar) interfaol metodlar, AKT vositalari, loyiha va muammoli ta'lim texnologiyalari orqali mustaqil fikrlashni shakllantirish bo'yicha yangicha amaliy ko'rsatmalar berilgan. Bu asarlar mavzuning hozirgi ta'lim islohotlari bilan uyg'un ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki: mustaqil fikrlash — davlat siyosatida muhim yo'nalish; pedagogik metodlar mazmuni uning asosiy vositasi hisoblanadi; psixologiya fikrlashning mexanizmini ilmiy asoslaydi; jahon tajribasi esa metodika va innovatsion yondashuvlarni boyitadi. Demak, mavjud adabiyotlar mavzu bo'yicha nazariy va amaliy asoslarning yetarli ekanini tasdiqlaydi, ammo amaliyotda ularni to'g'ri joriy etish va talabalarni faol fikrlashga undovchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish bugungi kun vazifasi bo'lib qolmoqda.

## XULOSA

Ta'lim jarayonida talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish bugungi kunda eng dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy jamiyat shunchaki tayyor bilimlarni egallagan emas, balki o'z fikriga ega bo'lgan, muammolarni tahlil qila oladigan va mustaqil qarorlar qabul qila oladigan shaxslarni talab etadi. Mustaqil fikrlash bu faqat bilim olish jarayoni emas, balki talabani o'z ustida ishlashi, izlanishi, savol berishi, tahlil qilishi va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan, ta'lim jarayonida talabani faolligini oshirish va uni bilimning passiv iste'molchisi emas, balki faol subyekti sifatida shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat ta'lim standartlari, milliy qonunchilik va ta'lim siyosatida ham aynan mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlay oladigan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'qitish jarayonida an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlarni keng joriy etishni taqozo etadi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarni faollashtirishga qaratilgan interfaol metodlar, muammoli vazifalar, guruh va jamoa ishlari, bahs-munozaralar hamda loyiha asosidagi ta'lim mustaqil fikrlashni samarali rivojlantiradi. Bunday yondashuvlarda talaba tayyor javobni yodlab olish emas, balki muammoni o'zi tahlil qiladi, turli yechimlarni solishtiradi va eng maqbul qarorni tanlashga harakat qiladi. Jahon ta'lim tajribasi ham shuni tasdiqlaydiki, bilimni mustaqil izlab topish orqali egallagan talaba undagi bilim yanada mustahkam va barqaror bo'ladi.

Shu sababli o'qituvchining roli ham tubdan o'zgaradi. Zamonaviy o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahatchi, motivator va talabani fikrlash jarayonini boshqaruvchi shaxs bo'lishi lozim. O'qituvchi ijodkor, ochiq fikrlaydigan, savol berishga undaydigan, talabalarni rag'batlantira oladigan va ularning fikriga hurmat bilan yondashadigan bo'lishi mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Mustaqil fikrlash talabani shaxs sifatida kamol topishida muhim ahamiyatga ega. U nafaqat bilimli, balki mas'uliyatli, tashabbuskor, muammolarni mustaqil hal qila oladigan, hayotiy

vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan inson sifatida shakllanadi. Ta'lim jarayonida talabalarni faollikka undash, ularni izlanishga, tajriba o'tkazishga, xatolar orqali o'rganishga va o'z faoliyatini tahlil qilishga rag'batlantirish mustaqil fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi. Pedagogik mexanizmlar — interfaol darslar, guruh ishlari, muammoli ta'lim, loyiha faoliyati, bahs-munozaralar va refleksiv mashg'ulotlar — talabaning fikrlash jarayonini faollashtiradi, uning analitik va tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi hamda mustaqil qarorlar chiqarish qobiliyatini shakllantiradi. Natijada, mustaqil fikrlashni shakllantirish nafaqat talabaning intellektual salohiyatini oshiradi, balki uni jamiyatda faol, mustaqil va mas'uliyatli shaxs sifatida hayotga tayyorlaydi. Bu esa ta'lim jarayonining eng muhim va ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108 Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5085999>
3. Safarova R.R. "Pedagogika" (2019) – Pedagogika asoslari, ta'lim va tarbiya jarayonini sodda tushuntiradi.
4. Yo'ldoshev J. "Mustaqil fikrlash kompetensiyasi va uni rivojlantirish texnologiyalari" (2018) – Talabalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish usullari.
5. Ziyomuhamedov B. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" (2016) – Darsni interfaol va qiziqarli qilish orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish yo'llari.
6. Karimova V.M. "Psixologiya" (2017) – Fikrlash jarayoni, motivatsiya va shaxs psixologiyasi asoslari.
7. Bloom B. "Taxonomy of Educational Objectives" (1956) – Bilim darajalari va mustaqil fikrlashni rivojlantirish bosqichlari.
8. De Bono E. "Lateral Thinking" (1990) – Kreativ va noodatiy fikrlashni rivojlantirish usullari.
9. Saidov U. "Ta'limda innovatsion metodlar" (2020) – Darslarni interfaol, qiziqarli va mustaqil fikrga undaydigan metodlar.
10. Raxmonqulov B. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" (2019) – Baholash, loyiha ishlari va interfaol metodlarni o'rganish.
11. Talabalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish vositalari. Maqola. 2022. I.Erkaboyev, Sh.Yakubova. B-615.
12. Talablarning mustaqil fikrlashini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari. Maqola. 2023. S.Tursunova, G.Shoyimova. B-176.